

1.1-MODUL. TARBIYA METODIKASI ASOSLARI

# MAVZU:UMUMIY O‘RTA TA’LIM MAKTABLARIDA TARBIYAVIY ISHLARNI TASHKIL ETISH TARTIBI, SHAKLI VA MAZMUNI


*PEDAGOGIKA, PSIXOLOGIYA VA TA’LIM TEXNOLOGIYALARI KAFEDRASI O‘QITUVCHISI JULMATOVA SAODAT JUR’ATJONOVNA*

# RANGLI PANJALAR





- O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev prezidentlik faoliyatining dastlabki kunlaridan boshlab yurtimizda innovatsion va kreativ fikrlaydigan, zamonaviy kadrlar tayyorlash, yoshlarni vatanparvarlik ruhida, yuksak ma’naviyat egalari etib tarbiyalash, shu maqsadda ta’lim tizimini takomillashtirish masalalariga alohida e’tibor qaratib kelmoqda.



Tarbiyaviy ishlar metodikasi pedagogika fanining bir qismi bo‘lib, fan sifatida ajralib chiqdi va o‘zining nazariy, uslubiy, amaliy asoslarini yaratdi. Natijada tarbiyaviy ishlarning tarmoqlari vujudga keldi. Tarbiyaviy ishlar metodikasi fani bir necha qismga bo‘lib o‘rganiladi. Bular quyidagilardir:

- -Tarbiya fanini o‘qitish metodikasi;
- -Jamoani tashkil qilish metodikasi;
- -Guruh rahbarining tarbiyaviy ishlarini tashkil etish metodikasi



# UMUMTA’LIM MAKTABLARDA TARBIYA PRINSIPLARI VA TARBIYANING AXLOQIY-MILLIY XUSUSIYATLARINI KO‘RIB CHIQAMIZ

*TARBIYA JARAYONI PRINSIPLARI:*

-TARBIYANING IJTIMOIY YO‘NALGANLIGI;

-TARBIYANING HAYOT VA MEHNAT BILAN BOG‘LIQLIGI;

-TARBIYADA IJOBIY JIHATLARGA TAYANISH;

- TARBIYANI INSONPARVARLASHTIRISH;

-SHAXSIY YONDOSHISH;

-TARBIYAVIY TA’SIRNING UMUMIYLIGI.



## TARBIYA JARAYONINING AXLOQIY-MILLIY XUSUSIYATLARI:

-MILLIY TARIX VA MADANIYATNING O‘ZIGA XOS JIHATLARINI HISOBGA OLISH;

-TARBIYAVIY ISHLARDA MILLIY UDUMLAR, AN’ANALAR, URFG‘ODATLAR, DINIY MAROSIMLARDAN FOYDALANISH;

-MILLIY MADANIYAT JAHON MADANIYATINING BIR BO‘LAGI EKANLIGI TUSHUNCHASINI SHAKLLANTIRISH.



***Mutaxassisning kasbiy rivojlanishi ichki potensialni yaratish shaxsning ijtimoiy-kasbiy guruhlar va mehnat vositalari bilan faol o‘zaro ta’siri natijasidir.***



# Potensialni ro‘yobga chiqarish ko‘plab omillarga bog‘liq:

- Insonning biologik tashkil etilishi
- Ijtimoiy vaziyat, shaxsning faolligi
- Kasbiy faoliyatning tabiati
- O‘zini o‘zi rivojlantirish va amalga oshirishga bo‘lgan ehtiyoji

# TA’LIM-TARBIYADA MUHIM BO‘LGAN RIVOJLANTIRUVCHI KO‘NIKMALAR QAYSILAR?



# TA'LIM-TARBIYA RIVOJLANTIRUVCHI TO'RT KO'NIKMA:

- Til o'rganish (kamida 1ta)
- Sport (kamida 1ta sport turi)
- Musiqiy savodxonlik (kamida 1ta cholg'u asbobi)
- Arifmetika






Bilgilki, - deydi Shayx Aziziddin Nasafiy, - Komil inson deb shariat, tariqat va haqiqatda yetuk boʻlgan odamga aytiladilar va agar bu iborani tushunmasang, boshqa ibora bilan aytayin: *Bilgilki, komil shunday insondirkim, unda quyidagi toʻrt narsa kamolga etgan boʻlsin: yaxshi soʻz, yaxshi feʼl, yaxshi axloq va maʼorif.*

*Tarbiya – tarbiyachi va tarbiyalanuvchi faoliyatlarini o‘z ichiga olgan ikki yoqlama jarayon.*



# PEDAGOGIK JAMOA FAOLIYATINING SAMARADORLIGI ASOSAN ULARNING QADRIYATLAR YO‘NALGANLIGI TIZMIGA BOG‘LIQ BO‘LADI:



- Talim va tarbiya maqsadlariga
- O‘quvchilar bilan o‘zaro munosabat uslubiga
- O‘qituvchilarning ta’sir usullariga
- Boshqalarga nisbatan ustanovkalari



# Matorik mashqlar













# T E A M

Bolaning shakllanishiga ta’sir ko‘rsatuvchi omillar haqida Islom dini va ulamolarning asarlarida yetarlicha fikr va mulohazalar bildirilgan. Shu bilan birga bolaning rivojlanishi haqida G‘arb faylasuflari ham o‘zlarining qarashlarini bayon qilishgan. Quyida biz G‘arb va Islom dunyosining bolaning shakllanishiga ta’sir ko‘rsatuvchi omillar haqidagi fikrlarini keltirib o‘tamiz.



Bolaning shakllanishi haqida G‘arb faylasuflarining fikrlariga ko‘ra:

-*Biologik yo‘nalish;*

-*Preformizm yo‘nalishi;*

-*Bixeviorizm yo‘nalishlari mavjud.*



## BIOLOGIK YO‘NALISH

Bu yo‘nalish tarafdorlari odam bolasining shaxs sifatida rivojlanishida tabiiy – biologik (irsiy) omillar hal qiluvchi rol o‘ynaydi deb biladilar. Ularning fikricha, bola ona qornidalik vaqtida avlod-ajdodlardan o‘tgan tug‘ma xususiyatlargina rivojlanadi. Ular tarbiya va muhitning rolini cheklab qo‘yishadi. Yo‘nalishning tarafdorlari Aristotel, Platon hisoblanadi.

# BEXEVIORIZM YO‘NALISHI




Bu oqimga amerikalik pedagog va psixolog E.Torandayk asos soldi. Uning fikricha, shaxsning barcha xususiyatlari, jumladan, ong va aqliy xususiyat ham nasldan naslga o‘tadi. Bu bilan E.Torandayk tarbiyaning shaxs rivojlanishiga ta’sirini butunlay inkor etadi va uni shaxsning xususiyatlariga ta’sir etishdan ojiz deb biladi.

# PREFORMIZM YO‘NALISHI

XVI asr falsafasida vujudga kelgan bu oqim namoyandalarining fikricha, bo‘lajak shaxsga tegishli barcha xususiyatlarga bola ona qornidaligidayoq ega bo‘ladi. Ular tarbiya va muhitning rolini butunlay inkor etishidi.





Islom dini va mutafakkirlarning asarlarida bolaning shakllanishi uchun tarbiya, irsiyat va muhit ta'siri alohida ta'kidlangan. Shu uch omilning ichida tarbiyaning roli, ayniqsa, ahamiyatli hisoblanadi. Ammo tarbiya ta'sirining kuchi va natijasi irsiyat va muhit kabi omillarning hamkorligi bilan belgilanadi. Chunki nasl va muhitda kamchilik bo'lsa, tarbiyaning ta'siri sezilmasligi mumkin.




**Tarbiya** biz uchun yo hayot – yo mamot, yo najot – yo halokat, yo saodat – yo falokat masalasidir!!!



# E’TIBORINGIZ UCHUN RAHMAT!



**Pedagogika, psixologiya va ta’lim texnologiyalari kafedrasi o‘qituvchisi**
**Julmatova Saodat Jur’atjonovna**